

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligining 2023- yil 30- noyabrda
83-son buyrug‘iga
ILOVA

**Ijtimoiy himoya statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha
Uslubiy nizom**

Ijtimoiy himoya statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha Uslubiy nizom (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom) statistika organlari tomonidan ijtimoiy himoya statistikasining asosiy ko‘rsatkichlarini shakllantirishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Mazkur uslubiy nizomda ijtimoiy himoya statistikasi ko‘rsatkichlarini hisoblash qoidalari, statistika ma‘lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladigan ma‘lumotlar manbalari, asosiy tushunchalar, atamalar va ularning ta‘riflari, individual statistika ko‘rsatkichlarini hisoblash formulalari va rasmiy statistika axborotini tarqatish usullari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Ushbu uslubiy nizomni ishlab chiqishdan ko‘zlangan maqsad – fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti va ijtimoiy himoya tizimini tavsiflovchi statistika ko‘rsatkichlarini xalqaro miqyosda qiyosiylikini ta‘minlash hisoblanadi.

Uslubiy nizomni tayyorlashda “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va ushbu soha faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda Mustaqil davlatlar Hamdo‘stligining Davlatlararo statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan pensiya ta‘minoti statistikasining uslubiy tushuntirishlaridan foydalanilgan.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796-son “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model- GSBPM) talablari asosida, statistika ma‘lumotlarining sifati va ishonchliligini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirish doirasida joriy etilgan.

Ijtimoiy himoya statistikasining predmeti — davlat pensiya ta‘minoti va ijtimoiy yordam tizimida sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarini miqdor va sifat jihatidan o‘rganish hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya statistikasining asosiy vazifasi esa, rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga davlat pensiya ta‘minoti va ijtimoiy yordam tizimining holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistik ma‘lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etishdan iborat.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflari qo'llanilgan:

pensiya — uni olish huquqi qonunchilikda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi hisoblanadi. Davlat tomonidan uch turdagi, ya'ni yoshga doir, nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanishi mumkin. Yoshga doir pensiya olish huquqiga, erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar esa 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar;

nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga, shuningdek, Chernobl AESdagi avariya tufayli mayib bo'lish yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga tayinlanadi;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari – vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladi;

nafaqa — qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga beriladigan oylik pul to'lovi bo'lib, quyidagilar ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslar hisoblanadi:

- a) nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalar;
- b) o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakil;
- v) qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;
- g) qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq, davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan vafot etgan shaxsning qaramog'idagi oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolari;
- d) qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq, davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi shaxslar hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor (bo'lgan) onalar.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga quyidagi nafaqalar tayinlanadi:

- a) nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqasi;
- b) parvarishlash nafaqasi;
- v) nogironlik nafaqasi;
- g) boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi;

d) yoshga doir nafaqa.

nogironlik guruhlari — sog‘lig‘ini yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning **uch guruhi** aniqlanadi;

nogironligi bo‘lgan bolalar (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilishiga hamda o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishiga muhtoj o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar;

nogironligi bo‘lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to‘liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxs;

yetim bola — otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga asosan vafot etgan deb e‘lon qilingan bola;

ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola — ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi yoxud muomalaga layoqati cheklanganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlaganligi, shu jumladan, uzrsiz sabablarga ko‘ra o‘z bolasini tug‘uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortganligi yoxud ota-ona qaramog‘i mavjud bo‘lmagan boshqa holatlar sababli ota-ona yoki yagona ota (ona) qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola;

uy-joyga muhtoj yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola — o‘zlariga biriktirilgan turar joyga ega bo‘lmagan va merosxo‘r va mol-mulkka egalik qilishning boshqa shakllari bilan nomida uy-joy bo‘lmagan Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek, “SOS — O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasining bolalar mahallalarida tarbiyalangan, shuningdek, farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) olingan 18 yoshga to‘lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar;

uy-joyga order — uy-joyga muhtoj yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolaga tuman (shahar) hokimligi tomonidan beriladigan mulkka egalik qilish huquqi asosida uy-joyga ko‘chib kirish uchun asos hisoblanadigan belgilangan namunadagi rasmiy hujjat.

1-§. Tibbiy-ijtimoiy muassasalar

“Saxovat” keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylari - O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 57-moddasiga muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo‘lgan birinchi darajadagi qarindoshlari yoki vasiylari bo‘lmagan yolg‘iz keksalar, 18 yoshidan

boshlab I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hamda o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz yashovchi I guruh nogironligi bo'lgan keksalar (keyingi o'rinlarda — vasiylikka olinuvchilar) uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadigan davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi;

“Muruvvat” nogironligi bo'lgan shaxslar uchun internat uylari — O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironligi bo'lgan shaxslari (keyingi o'rinlarda — vasiylikka olinuvchilar) uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadigan davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi;

“Muruvvat” nogironligi bo'lgan bolalar uchun internat uylari — O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar (keyingi o'rinlarda — vasiylikka olinuvchilar) uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadigan davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi;

oilaviy bolalar uyi — bolalarni oila muhitida tarbiyalashga mo'ljallangan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tuzilma hisoblanadi;

“SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasi — “SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari”ni tashkil etish, qurish, jihozlash va O'zbekiston Respublikasida ular bilan bog'liq loyihalarning faoliyat ko'rsatishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va “SOS — Kinderdorf International” xalqaro jamiyati (Avstriya) o'rtasida 1997- yilda tuzilgan shartnomaga muvofiq, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarni, shuningdek ota-onalar qarovisiz qolish ehtimoli bo'lgan bolalarni jismoniy, intellektual va ma'naviy kamol toptirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida “SOS — Kinderdorf International” xalqaro jamiyati tomonidan ta'sis etiladi;

2-bob. Ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlarni shakllantirish manbalari

Statistika agentligi tomonidan ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlarni shakllantirishda vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etiladigan yillik statistika hisoboti shakllari va ma'muriy ma'lumotlardan foydalaniladi.

Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga oid statistika ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan taqdim etiladigan “1 pensiya shakli yillik” statistika hisoboti asosida shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan qabul qilib olingan statistika hisoboti va ma‘muriy ma‘lumotlar asosida pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni va ularga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o‘rtacha miqdori, shu jumladan pensiya va nafaqa turlari bo‘yicha statistika ma‘lumotlari shakllantiriladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun reabilitatsiya markazlari faoliyati va nogironligi bo‘lgan shaxslar va nogironlik sabablari to‘g‘risida statistika ma‘lumotlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan taqdim etiladigan ma‘muriy ma‘lumotlar asosida shakllantiriladi.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va yetim bolalar uchun ta‘lim muassasalari faoliyatiga oid statistika ma‘lumotlarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, “SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasi va boshqa idoralarning internat turidagi muassasalari tomonidan taqdim etiladigan “1 internat shakli yillik” statistika hisoboti asosida shakllantiriladi.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni aniqlash va joylashtirishga oid statistika ma‘lumotlarini O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan taqdim etiladigan “1 ijtimoiy yordam shakli yillik” statistika hisoboti asosida shakllantiriladi.

Turarjoyga muhtojlar sifatida hisobga qo‘yilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar hamda turarjoy uchun berilgan orderlar to‘g‘risida statistika ma‘lumotlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan taqdim etiladigan “1 uy joy shakli yillik” hisoboti asosida shakllantiriladi.

Statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqishning namunaviy modeli (GSBPM- The generic Statistical Business Process Model) asosida tayyorlangan ijtimoiy himoya statisikasiga oid ma‘lumotlarni ishlab chiqishning umumiy jarayonini ifodalovchi sxema ilovada keltirilgan.

3-bob. Ijtimoiy himoya statistikasiga oid alohida ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari

Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning o‘rtacha miqdori — tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning umumiy miqdorini pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$\text{Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga tayinlangan oylik pensiya va nafaqaning o'rtacha miqdori, so'm} = \frac{\text{tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning umumiy miqdori, so'm}}{\text{pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni, kishi}}$$

Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha oylik miqdorini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning umumiy miqdori, so'm	Pensiya va nafaqa oluvchilar umumiy soni, kishi	Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga tayinlangan oylik pensiya va nafaqaning o'rtacha miqdori, so'm
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2)
O'zbekiston Respublikasi	5 382 260 275 951	4 534 392	1 186 986,1

Tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal o'sish miqdori — joriy davr pensiya va nafaqalari nominal miqdorini o'tgan yilning tegishli davriga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

$$\text{Tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal o'sish miqdori, \% da} = \frac{\text{hisobot yili yakuni bo'yicha tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal miqdori, so'm}}{\text{o'tgan yilning mos davridagi tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal miqdori, so'm}} * 100 \%$$

Tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal o'sish miqdorini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Hisobot yili yakuni bo'yicha tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal miqdori, so'm	O'tgan yilning mos davridagi tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal miqdori, so'm	Tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal o'sish miqdori, \% da
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2*100 %)
O'zbekiston Respublikasi	1 186 986,1	1 063 539,5	111,6

Ayollarga va erkaklarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori nisbatini aniqlash, tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdorining jinslar bo'yicha nisbati orqali aniqlanadi.

$$\text{Ayollarga va erkaklarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori nisbati, \% da} = \frac{\text{ayollarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori, so'm}}{\text{erkaklarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori, so'm}} * 100 \%$$

Ayollarga va erkaklarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori nisbatini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Ayollarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori, so'm	Erkaklarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori, so'm	Ayollarga va erkaklarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning o'rtacha miqdori nisbati, % da
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2*100 %)
O'zbekiston Respublikasi	1 023 751,9	1 045 325,5	0,98

Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafalar miqdorini kishi boshiga bir oylik minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga nisbati quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$\text{Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalarning kishi boshiga bir oylik minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga nisbati, \% da} = \frac{\text{hisobot oyi yakuni bo'yicha tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal miqdori, so'm}}{\text{kishi boshiga bir oylik minimal iste'mol xarajatlari miqdori, so'm}} * 100 \%$$

Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalar miqdorini kishi boshiga bir oylik minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga nisbatini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Hisobot oyi yakuni bo'yicha tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalarning nominal miqdori, so'm	Kishi boshiga bir oylik minimal iste'mol xarajatlari miqdori, so'm	Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalar miqdorini kishi boshiga bir oylik minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga nisbati, % da
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2*100 %)
O'zbekiston Respublikasi	1 024 617,8	568 000	180

Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga to'g'ri keladigan iqtisodiyotda band bo'lganlar soni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga to'g'ri keladigan iqtisodiyotda band bo'lganlar soni, kishi} = \frac{\text{iqtisodiyotda band bo'lganlar, kishi}}{\text{pensiya va nafaqa oluvchilar, kishi}}$$

Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga to'g'ri keladigan iqtisodiyotda band bo'lganlar sonini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Iqtisodiyotda band bo'lganlar, kishi	Pensiya va nafaqa oluvchilar, kishi	Bir nafar pensiya va nafaqa oluvchiga to'g'ri keladigan iqtisodiyotda band bo'lganlar soni, kishi
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2)
O'zbekiston Respublikasi	13 706 207	4 534 392	3

Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalar miqdorining hisoblangan o'rtacha nominal ish haqi miqdoriga nisbati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalar miqdorining hisoblangan o'rtacha nominal ish haqi miqdoriga nisbati, \% da} = \frac{\text{hisobot yilida tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal o'rtacha miqdori, so'm}}{\text{hisoblangan o'rtacha nominal oylik ish haqi miqdori, so'm}} * 100 \%$$

Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalar miqdorining hisoblangan o'rtacha nominal ish haqi miqdoriga nisbatini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Hisobot yilida tayinlangan oylik pensiya va nafaqalarning nominal o'rtacha miqdori, so'm	Hisoblangan o'rtacha nominal oylik ish haqi miqdori, so'm	Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya va nafaqalar miqdorining hisoblangan o'rtacha nominal ish haqi miqdoriga nisbati, \% da
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2*100 %)
O'zbekiston Respublikasi	1 024 617,8	3 204 301,3	32,0 %

Nogironlik koeffitsiyenti (NK) – nogironligi bo'lgan shaxslar umumiy sonining mehnatga layoqatli aholi soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Ushbu formula nogironlik darajasini umumiy mehnatga layoqatli aholiga nisbatan foizdagi nisbatini baholash imkonini beradi.

$$\text{Nogironlik koeffitsiyenti, \% da} = \frac{\text{nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy soni, kishi}}{\text{mehnatga layoqatli aholi soni, kishi}} * 100 \%$$

Nogironlik ko'effitsiyentini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy soni, kishi	Mehnatga layoqatli aholi soni, kishi	Nogironlik ko'effitsiyenti, % da
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2*100 %)
O'zbekiston Respublikasi	797 327	19 393 126	4,1 %

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ko'effitsiyenti — yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar umumiy sonining bolalarning umumiy soniga nisbati sifatida aniqlanadi va quyidagi formula bilan ifodalanishi mumkin:

$$\text{Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ko'effitsiyenti, \% da} = \frac{\text{yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar umumiy soni, kishi}}{\text{bolalar umumiy soni, kishi}} * 100 \%$$

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ko'effitsiyentini hisoblash bo'yicha shartli misol

	Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar umumiy soni, kishi	Bolalar umumiy soni (0-17 yosh oralig'idagi umumiy aholi), kishi	Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ko'effitsiyenti, % da
A	1	2	3 (grafa 1 / grafa 2*100 %)
O'zbekiston Respublikasi	48 743	12 506 978	0,4 %

4-bob. Statistika ma'lumotlarini tarqatish

Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, ijtimoiy himoya statistikasiga oid statistika ma'lumotlari quyidagi ko'rinishlarda shakllantiriladi va tarqatiladi:

Yillik statistika to'plamlari:

- "O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami" — nashr qilish davri avgust.
- "O'zbekiston raqamlarda" — nashr qilish davri sentabr;
- "O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi" — nashr qilish davri sentabr;

- “O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash” — nashr qilish davri ikki yilda bir marotaba — noyabr.

Statistika byulletenlari:

“Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy ko‘rsatkichlari” — nashr qilish davri may.

Xalqaro tashkilotlarning savolnomalari:

MDH Statistika qo‘mitasiga, MDH mamlakatlari doirasida statistika ma’lumotlarini davlatlararo almashish bo‘yicha savolnomalar to‘plami

Xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlar bazalari:

YUNISEFning TransMonEE ma’lumotlar bazasida e’lon qilinadigan ma’lumotlar.

Bundan tashqari, ijtimoiy himoya statistikasiga oid statistika ma’lumotlar, Statistika agentligini rasmiy veb-saytlarida jadvallar shaklida, davriy qatorlar ko‘rinishida taqdim etiladi.

Shuningdek, rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so‘rovlari asosida ham ijtimoiy himoya statistikasiga oid statistika ma’lumotlari taqdim etiladi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

10. Uslubiy nizom statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazishning asosiy bosqichlariga mos keluvchi ketma-ketlikda ifoda etilgan bo‘lib, fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti va ijtimoiy himoya tizimini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar asosida, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan.

11. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-938-XII-son 3- sentabr 1993- yil. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

2. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni. 15- oktabr. 2020- y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 25 oktabrdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 656-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 13- oktabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" 592-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 23 martdagi "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" 119-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 17- sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 575-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 16- avgustdagi "Oilaviy bolalar uylari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 451-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997- yil 31- dekabrdagi "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasini tashkil etish to'g'risida" 585-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 21- noyabrdagi "SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 738-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>)

10. Межгосударственный статистический комитет Содружества Независимых Государств "Методологические пояснения по заполнению вопросника № 17".

Ijtimoiy himoya statistikasi
ko'rsatkichlarini shakllantirish
bo'yicha Uslubiy nizomga
ILOVA

**Ijtimoiy himoya statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha
SXEMA**

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
I bosqich	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlar manbalarini aniqlash.	Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va uni amalga oshiruvchi shuningdek, ushbu sohada ishtirok etuvchi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini aniqlash.	Yilda bir marotaba	Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish boshqarmasi
II bosqich	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlarni yig'ish.	Tasdiqlangan uslubiyotga muvofiq ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlarni shakllantirishda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan taqdim etiladigan yillik statistika hisoboti shakllari va ma'muriy ma'lumotlarni yig'ish.	Yilda bir marotaba Statistika dasturiga muvofiq	Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish boshqarmasi
III bosqich	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlarni qayta ishlash.	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid yig'ilgan yillik statistika hisoboti shakllari va ma'muriy ma'lumotlarda uchrashi mumkin bo'lgan xatoliklar va nomuvofiqliklarni aniqlash va bartaraf etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda birlamchi qayta ishlash.	Statistika dasturiga muvofiq	Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish boshqarmasi

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
IV bosqich	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish.	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid yig'ilgan ma'lumotlarni o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslash, keskin ortib ketgan yoki aksincha, keskin kamayib ketgan ko'rsatkichlar bo'yicha faktorli tahlil o'tkazish.	Ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng	Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish boshqarmasi
V bosqich	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid statistik ko'rsatkichlarni nashr etish va tarqatish.	Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, aholining ijtimoiy himoyasiga oid statistika ma'lumotlarini yillik statistika to'plamlar, statistik byulletenlar, xalqaro tashkilotlarning savolnomalari, xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlar bazalari shuningdek, Statistika agentligini rasmiy veb-saytida jadvallar shaklida davriy qatorlar ko'rinishida taqdim etib borish.	Statistika dasturiga muvofiq	Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi, Xalqaro hamkorlik va axborot almashinuv boshqarmasi, Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish boshqarmasi
VI bosqich	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlarning ochiqligi.	Aholining ijtimoiy himoyasiga oid statistika ma'lumotlarini umumfoydalanish uchun ochiqlik holati, ochiq ma'lumotlarning oshkoralik va sifat darajasi, ularni fuqarolarga va jahon hamjamiyatga yetkazishning amaldagi mexanizmlariga rioya etish.	Statistika dasturiga muvofiq	Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi, Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish boshqarmasi
VII bosqich	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid ma'lumotlarni shakllantirishda qayta aloqa va tuzatishlar	Ijtimoiy himoya statistikasiga oid rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan rasmiy statistikaning sifati masalalari yuzasidan muntazam ravishda maslahatlashuvlar o'tkazish, foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini olish va zarur holatlarda tuzatishlar kiritish yuzasidan ekspertlar kengashiga ko'rib chiqish uchun takliflar taqdim etish.	Yilda bir marotaba	Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish boshqarmasi, Statistika agentligining ekspertlar kengashi, tegishli vazirlik va idoralar